



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “10” noyabr

BUYRUQ № 194

Toshkent sh.

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114- son qaroriga muvofiq, milliy statistika tizimiga sifatni boshqarishning ilg‘or tizimlarini joriy etish hamda ishlab chiqaruvchilar narxlari statistikasini shakllantirish bo‘yicha statistika uslubiyotini yanada takomillashtirish maqsadida, **BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 7- yanvardagi 7- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tashish va aloqa xizmatlari tariflari narxlari indeksini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” (keyingi o‘rinlarda – Uslubiy nizom)ga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Statistika agentligining
2024- yil "20" *noyabr* *194* -son buyrug'iga
ILOVA

**Tashish va aloqa xizmatlari tariflari indeksini hisoblash bo'yicha
uslubiy nizomga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Uslubiy nizomning 10- bandi quyidagi tahrirda ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Tayanch tashkilotlar tanlanmasini shakllantirish Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga ilovada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.”;

2. Uslubiy nizomning 30- bandi quyidagi tahrirda ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Salmoq vaznlarini shakllantirish Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda Uslubiy nizomga ilovada keltirilgan tartibda amalga oshiriladi.”;

3. Uslubiy nizomning 52- bandi uchinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

4. Uslubiy nizom quyidagi tahrirda 53- band bilan to'ldirilsin:

“Statistika agentligining tarmoq boshqarmalari (ichki foydalanuvchilar) uchun narxlar indeksi to'g'risidagi ma'lumotlar Statistika dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan reja-jadval asosida taqdim etiladi.”;

5. Uslubiy nizom quyidagi tahrirda ilova bilan to'ldirilsin:

“Tashish va aloqa xizmatlari
tariflari indeksini hisoblash
bo'yicha uslubiy nizom”ga
ilova

Tashish va aloqa tariflari indekslarini hisoblash va e'lon qilish mexanizmi

Bosqichlar	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas'ullar
I bosqich	Transport, saqlash va aloqa sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar katalogi va vaznlar tuzilmasini shakllantirish	1. Transport, saqlash va aloqa sohasida ko'rsatilgan xizmatlar hajmlari to'g'risidagi statistika ma'lumotlari asosida narx kuzatuvlari uchun korxonalar katalogini shakllantirish; 2. Xizmatlar sohasi statistikasi ma'lumotlari asosida korxonalar va mahsulotlar bo'yicha vazn ulushlari tuzilmasini shakllantirish; 3. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar katalogi va vazn ulushlari bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlarni Narxlar statistikasi boshqarmasiga taqdim etish.	yilda bir marotaba, oktabr oyining 20- kuni	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, Narxlar statistikasi boshqarmasi
II bosqich	Elektron kuzatuvlarni qabul qilish	Har oyda e-Stat tizimi orqali 12 narx kuzatuv shakli asosida respondentlardan kuzatuv ma'lumotlarini qabul qilib olinishini ta'minlash.	12 narx, kuzatuv oyining 25- sanasi	Hududiy statistika boshqarmalari, Narxlar statistikasi boshqarmasi
III bosqich	Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlash	Korxonalardan yig'ib olingan ma'lumotlarni umumlashtirish, qayta ishlash va yakuniy ma'lumotlarni shakllantirish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda	Narxlar statistikasi boshqarmasi, Hududiy statistika boshqarmalari
IV bosqich	Yakuniy ma'lumotlarni foydalanuvchilarga yetkazish	1. Ko'rsatkich bo'yicha statistik byulleten shakllantirish; 2. SIAT axborot tizimida yakuniy jadvallarni e'lon qilish orqali foydalanuvchilarga yetkazish; 3. Agentlikning ichki foydalanuvchilariga narx indeksi bo'yicha yakuniy ma'lumotlarni yetkazish.	Statistika dasturida belgilangan muddatlarda, Reja-jadvalga asosan	Narxlar statistikasi boshqarmasi